

QURBONOVA MANZILA BOQIEVNA

Bukhara State University

Ph.D., associate professor

ORIPOVA NIGORA ABDUSAMADOVNA

Bukhara State University

Ethnography, ethnology and anthropology

2nd stage graduate student

a.n.oripova@buxdu.uz

Uzbekistan

Received 4th March 2022, Accepted 12th March 2022, Online 24th March 2023

A GLANCE INTO THE HISTORY OF THE LOUVRE IN THE DESERT

Abstract. The article talks about Igor Vitaliyevich Savitsky Museum in the Karakalpak region, which is an epic in the world and its rare exhibits.

Key words: Savitsky, museums, avant-garde, artists, Karakalpaks

ВЗГЛЯД В ИСТОРИЮ ЛУВРА В ПУСТЫНЕ

Аннотация. В статье рассказывается о музее Игоря Витальевича Савицкого в Каракалпакской области, являющемся эпосом в мире, и его редких экспонатах.

Ключевые слова: Савицкий, музеи, авангард, художники, каракалпаки.

DUNYONI LOL QOLDIRGAN MUZEY YOXUD “SAHRODAGI LUVR” TARIXIGA BIR NAZR

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpoq zaminidagi dunyoda tillarda doston bo'lgan Igor Vitalievich Savitskiy muzeyi va undagi nodir eksponatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Savitskiy, muzeylar, avangard, rassomlar, qoraqalpoqlar

Kirish (Introduction)

Har qanday davlat taraqqiyot sari intilar ekan, doimo tarixga nazar tashlab, mavjud urf-odatlar, an'analar va qadimiy yodgorliklarni o'rganishga va saqlashga intilishi tabiiy hol albatta. Ayniqsa bu borada muzeylarning o'rni beqiyosdir. Chunki muzeylar o'tmishdan kelgan tarixiy madaniyat, ma'rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimiga solingan yig'indisi bo'lib amaldagi qonun-qoidaga muvofiq ravishda saqlanadi va namoyish qilinadi. Dunyoni lol qoldirayotgan ana shunday muzeylardan biri I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston san'at muzeyidir. Bugungi kunda I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi O'zbekistondagina emas, balki butun dunyoda mashhur.

2001- yilda ingliz "The Guardian" gazetasi uni "dunyodagi eng go'zal muzeylardan biri" sifatida e'tirof etgan. Xuddi shunday bahoni "Dunyoni eng zo'r muzeylaridan biri" deb Albert Gor va Jak Shirak ham berishgan. Muzeyda saqlanadigan kolleksiyalarni dunyoni ko'p etakchi davlatlari

Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiyaning oldingi va hozirgi elchilari tomosha qilishgan. [9] Ko'plab taniqli xorijlik san'atshunos mutaxassis va sayyohlar aynan shu muzeyni ko'rish uchun keladilar. Bu muzeyni ko'rish orzusidagilar esa undan ham ko'p. I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat san'at muzeyi mana necha yildirki O'zbekistonning sayyohlik yo'nalishlaridagi o'ziga xos asosiy manzilga aylangan. Bugungi kunda bu muzeyni «Saxrodagi Luvr», «Osiyo marvaridi», «Zamonaviy san'at Makkasi» deb atashadi. [1] Bu tom ma'noda muzey tarixi, xorijning boshqa mashhur muzeylari ichida o'z o'rniga ega bo'lgan betakror to'plamiga munosib bahodir. Muzeylar — tarixning sirli xilqatlarini o'zida mujassam etgan holda xalqlar madaniyatini, qadriyatlarini tarannum etuvchi maskan va davlatlarni bir-birlariga yaqinlashtiruvchi ko'prik hisoblanadi. Parijdagi arab dunyosi institutida 2022 yilning 22 noyabr kuni XIX asr o'rtalaridan XX asr boshlarigacha mavjud O'zbekiston xalq amaliy san'atining noyob namunalari ko'rgazmasi ochildi. Mana shu ko'rgazmada ilk bor O'zbekistonning 9 ta yirik muzeylaridan 300 dan ortiq eksponatlar xalqaro jamoatchilikka taqdim etildi. Ular orasida Nukus shahridagi Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyidan to'qimachilik, kiyim-kechak va poyafzal, bosh kiyimlar, zargarlik buyumlari kolleksiyalari, shuningdek, Turkiston va rus avangardining 24 ta rang tasvir asarlari joy olgan. Bu ko'rgazmaga 260 ming nafardan ortiq kishi tashrif buyurdi. [2]

Nafaqat Parijda balki dastlab 2017 yil 5- aprelda Moskvada Pushkin nomidagi Tasviriy san'at muzeyida O'zbekistonning dunyoga mashhur Savitskiy muzeyida saqlanadigan suratlar ko'rgazmasi ochildi. Ko'rgazmaga "Nukus xazinasi" deb nom berildi. Moskvada Savitskiy muzeyidagi avangard va postavangard yo'nalishida ijod qilgan rassomlarning 200 ga yaqin asarlari, kulolchilik namunalari va Qoraqalpog'istonda topilgan ayrim arxeologik eksponatlar ko'rgazmaga qo'yildi. [3] O'zbekiston va Rossiya rasmiylari va san'at namoyandalari ushbu ko'rgazma ochilayotganini yuqori baholadilar. Shuningdek Moskvada 2022 - yilning 28-29 sentyabr kunlari Rus impressionizmi muzeyida I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat san'at muzeyi sara to'plamlarining eng yorqin buyumlari to'g'risida Marinika Babanazarovanning "Savitskiy haqidagi xotiralar" kitob taqdimoti bo'lib o'tdi.[4] Qoraqalpoq xalqi tomonidan asrab avaylab, boyitilib kelinayotgan shunday bebaho ma'naviy xazinamizning borligi, bizni yana bir bor dunyoga tanitdi.

Dunyo e'tirofidagi bu muzey Moskvalik rassom Igor Vitalievich Savitskiyning sa'y-harakati va u to'plagan qoraqalpoq xalq amaliy san'ati asarlari negizida, 1966 yilda tashkil etilgan va 1984-yildan I.V.Savitskiy nomi bilan atala boshlangan. Hozirgi kunda muzey to'plamida 100 ming dan oshiq buyum saqlanadi va xronologik jihatdan to'rt ming yildan ortiq davrni o'z ichiga oladi. [9] Shuning uchun ham mutaxassislar fikriga ko'ra, u Markaziy Osiyo hududidagi eng yaxshi va qadimiy xalq amliy san'at muzeyi hisoblanadi. Muzeyning umumiy maydoni – 19ming 282 metr kvadratni tashkil qilib, uchta alohida binodan iborat. Birinchi va ikkinchi binolarda ko'rgazma tashkil etilgan bo'lsa, uchinchi binoda muzey zahirasidagi eksponatlar saqlanadi. Muzeyda xalq amaliy san'ati, qadimiy va o'rta asrlar Xorazm san'ati, 1920–1930 yillar o'zbek va rus tasviriy san'ati, qoraqalpoq zamonaviy rangtasviri va haykaltaroshligi, ilmiy-ma'rifiy bo'limlar, kutubxona (10 ming kitob), jamg'arma hamda ta'mirlash ustaxonasi mavjud. [5] Qoraqalpoq an'anaviy hunarmandchiligining kashtachilik, gilamdo'zlik, milliy kiyim, zargarlik san'ati, o'ymakorlik kabi turli ko'rinishlarini o'z ichiga oladi. Muzey kolleksiyasida shuningdek o'zbek, turkman, qozoq xalqlarining kashtachilik, zargarlik san'ati namunalari ham bor. Turli etnik guruhlar hunarmandchiligini o'zaro taqqoslash, I.V.

Savitskiy aytganiday, ularning umumiy va bir-biridan farqli jihatlari xususida aniq tasavvur hosil bo'ladi. [9]

Turkiston va rus avangardi (Avangard - frants.avantgardiste —20-a. adabiyot va san'atida qator zamonaviy oqimlarning umumiy shartli nomi) [6] kolleksiyasi muzeyning iftixoridir. Shu yo'nalish bo'yicha, I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat san'at muzeyi, Rus davlat muzeyi (Rossiya Federatsiyasi)dan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Rus avangardi uning badiiy jihatdan nafaqat noyob, balki keng ko'lamli, ko'p tarkibli, uslub jixatdan rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Shuningdek muzeyda, Turkiston avangardining noyob kolleksiyasi ham mavjud. O'zbekistonning boshqa biror muzeyida Turkiston avangardi bunchalik ko'p uchramaydi. Bir qator olimlar bu yo'nalishni «Turkiston avangardi», «O'rta Osiyo avangardi», «O'zbekiston avangardi» deb turlicha nomlashadi. Kolleksiyaning bu bo'limida, O'zbekiston rassomlarining ishi taqdim etilgan. Tadqiqotchilar yozganidek: «Turkiston ular uchun shunchaki etnografiya manzarasi emas, balki «avangard» dunyoqarash manbai bo'lgan. O'tgan asrlar badiiy merosidan nasl olgan mahalliy zaminda Yevropa «izm»lari o'z sharqona ohanglariga ega bo'ldi, an'anaviy shakllar «avangard» tafakkuri bilan to'lib-toshdi». [7] Turkiston avangardining o'ziga xosligi shundaki, u rus avangardi tajribasini (rus avangardi esa o'z navbatida Yevropa tajribasini) o'rta Sharq an'anaviy madaniyati badiiy tajribasi bilan uyg'unlashtirganidadir. O'zbekiston avangardi XX asr rassomlik san'ati orqali Sharq san'ati mohiyatini, uning ma'naviy mazmunini aks ettirishga muvaffaq bo'ldi. Uning ulug'ligi, nodirligi va o'ziga xosligi ana shundadir.

Savitskiyning Qoraqalpogiston zamonaviy tasviriy san'atini shakllantirishga qiziqishi benihoya katta edi. Artefaktlarda gavdalangan madaniyat tarixi Savitskiy uchun o'z-o'zidan qadrlil bo'lgani yo'q. Savitskiyni mashhur qilgan qoraqalpoq xalqi an'anaviy amaliy bezak san'ati namunalari edi. Bularni olim mahalliy aholiga pul berib olar edi.

Bu tarix qoraqalpoq xalqining ijodiy saloxiyatini saqlash va rivojlantirishda o'z o'rnini egallashi lozim bo'lgan. I. V. Savitskiy tushunchasidagi ushbu muzey odamlar «qoraqalpoq zaminida turli davrlarda gullab yashnagan san'at bilan tanishish barobarida, Yevropa tasviriy san'at an'analari haqida ham yaqindan tasavvur uyg'ota oladigan joy bo'lishi lozim edi». [8]

Xulosa (Conclusion)

Xulosa o'rinida shuni ta'kidlamochimanki, Igor Vitalievich Savitskiy nomidagi san'at muzeyida, shunday nodir san'at asarlari, noyob tarixiy va etnografik eksponatlar borki – ularni jahonda tengi yo'q boylik - desak, adashmagan bo'lamiz. Bunday asarlarni dunyoning har qanday muzeyi qo'lga kiritishni orzu qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (Reference)

1. Ўзбекистон маданий мероси. И.В. Савицкий номидаги Қорақалпоғистон Республикаси давлат санъат музейи тўплами. IX жилд. Тошкент.: «Silk Road Media», «East Star Media». 2020.
2. <https://daryo.uz/2022/10/26/parijda-nukus-shahridagi-savitskiy-muzeyi-eksponatlari-namoyish-etiladi-foto/>. 26.10.2022, 22 :19.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage

Volume: 3 Issue: 02 | 2023

ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314

<http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich>

3. <https://uza.uz/uz/posts/prezident-i-savitskiy-nomidagi-sanat-muzeyi-15-12-2017>.
4. <https://oz.sputniknews.uz/20220920/moskvada-nukus-muzeyi-durdonalariga-bagishlangan-kitob-taqdim-etildi-28396015.html>.18:54 20.09.2022
5. G. Bektursunova. “Qoraqalpoq zaminidagi javohir” . SCIENTI FIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1601. – Page. 218
6. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» .А ҳарфи .ТОШКЕНТ.
7. Туркестанский авангард. М., 2009, - С.17.
8. Савицкийга гулчамбар. Расм, сурат, фотографиялар, хужжатлар. М.:2011.
9. <https://xs.uz/uz/post/muzejlar-tarikhning-sirli-khilqatlarini-ozida-muzhassam-etgan-kozgu>. 21:03 18 May 2020